

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

№4

2025
APREL




Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE


Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



РЭУ.РФ
Российский экономический университет
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ





*Elektron nashr,
544 sahifa, aprel, 2025-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

TAHRIR HAY'ATI:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

MUHANDISLIK & IQTISODIYOT

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
05.01.07 – Matematik modelashtirish
05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti

08.00.01 - Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 - Makroiqtisodiyot
08.00.03 - Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 - Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 - Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 - Ekonometrika va statistika
08.00.07 - Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 - Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 - Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 - Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 - Marketing
08.00.12 - Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 - Menejment
08.00.14 - Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 - Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 - Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 - Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan
"Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan
milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha
"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

M u a s s i s: "Tadbirkor va ishbiarmon" MChJ

H a m k o r l a r i m i z:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

Роль искусственного интеллекта в управлении финансовым потенциалом предприятий.....	10
Юсупов Файзулла Якубович	
Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini moliyaviy vositalar orqali takomillashtirish: "Navoiy" EIZ misolida.....	20
Quziev Ravshan Ramazanovich	
Davlat xaridlari jarayonini boshqarish va nazorat qilishning muhim jihatlari.....	26
Xodjamqulov Shahboz Sherali o'g'li	
Oliy ta'lim tizimini baholash: milliy model va global standartlar.....	31
Hakimov Hakimjon Abdullo o'g'li, Hakimova Gulnoza Abdulloyevna	
Aksiyadorlik jamiyatlarining investitsion jozibadorligini oshirishda xorij tajribasi.....	37
Qodirov Iskandar Alisher o'g'li	
Механизмы адаптации рынка труда к новой модели экономического роста: теория, практика и цифровые решения.....	41
Абдумухтаров Анваржон Акрамжонович	
Xorazm viloyati eksport strategiyasini takomillashtirishning iqtisodiy va ijtimoiy ta'sirlari.....	50
Fozil Xolmurotov	
Suv resurslarini tejashda aqli sug'orish tizimlarining ahamiyati.....	62
Abdullayev.A., Karimov Anvarjon Muqumjonovich	
To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoati raqobatbardoshligini oshirishning marketing vositalari.....	68
Satvoldiyev Ulugbek Kamilovich	
The current state and development trends of innovative activity in agriculture.....	72
Aytmuratova Miyrigul Zhalgasovna	
Методология оценки инновационной деятельности.....	78
Алиева Эльнара Аметовна	
Yashil iqtisodiy o'sishda raqamli iqtisodiyot va tadbirkorlikning integratsiyalashuvi.....	86
Xodjamov Asliddin O'ktam o'g'li, Maqsudov Bunyod Abdusamat o'g'li	
Tijorat banklari aktivlarini diversifikatsiya qilish yo'llari tahlili.....	92
Abdurazzoqov Abdualim Abdujabbor o'g'li	
Направления повышения эффективности средств, направляемых на обеспечение занятости населения и сокращение бедности.....	97
Маликов Аuezхан Жорабекович	
O'zbekiston uy xo'jaliklarining farovonlik koeffitsiyenti: blackorby va donaldson yondashuvi asosida tahlili.....	106
Boltayeva Dilafza Jumaqulovna	
O'zbekistonda aholi jon boshiga asosiy kapitalga investitsiyalarning o'zgarish dinamikasi.....	114
Qo'shbaqov Aybek Shovqiyevich	
Yashil iqtisodiyotga o'tish sharoitida barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash, davlat iqtisodiy siyosatini takomillashtirish va sirkulyar iqtisodiyot tamoyillarini joriy etishning samaradorligini oshirish yo'llari.....	123
Muratbaeva Eleonora Muxamedjan qizi, Saifnazarov Ismoil Saifnazarovich	
Yangi o'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanish tendensiyalari.....	132
Tojiyev Javlonbek Rustamovich	



Mulkchilik shakliga ko'ra tijorat banklarida depozitlarining amaldagi holati tahlili	138
Allaberganov Sirojali Saxatovich	
Bandlikni ta'minlashda moliyaviy mexanizmlarning o'rni va ahamiyati	151
Karimjonov Muhammadrasul To'liqinjon o'g'li	
Mustaqil direktorlar ulushi, nomoliyaviy axborotlarning oshkor qilinishi va dividend siyosatining kapital qiymatga kompleks ta'siri	159
Urinov Bobur Nasilloevich	
Turizm orqali ish o'rinlarini yaratish va bandlik muammosini kamaytirish imkoniyatlari	167
Kaxramanova Sevda Shamsiddin qizi	
Kam quvvatli gidroelektr stansiya uchun mos bo'lgan invertor, reduktor, akkumulyator va generatorni tanlash	173
Xamrayev Og'abek Oybek o'g'li, Davletov I.Y.	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida sanoat tarmoqlarini ijtimoiy va iqtisodiy jarayonlarini rivojlantirishning ilmiy-uslubiy asoslari	182
Ibragimova Gulnoza Sayidmuradovna	
Terminologiya va ilmiy terminologiya xususida	188
Ruziyeva Gulnoz Temirqulovna	
O'zbekiston Respublikasida innovatsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish yo'llari	192
Ramazonov Javohir Bekzod o'g'li	
Bazalt chiqindi toshqol asosidagi kam suv talabchan sementlarning samaradorligini oshirish	197
Babayev Sultonbek Sunnat o'g'li	
Qashqadaryo qayta tiklanuvchi energiya manbalarining samaradorligini turli yondashuv asosida baholash	203
Omonova Sitara Zafar qizi, Utayev Sobir Achilovich	
Tilshunoslikning mexanika muhandisligi terminlari xususida	208
Mansurova Nafisa Qamariddinovna	
"Chizma geometriya va perspektiva" fanining arxitektura bilimlari tizimidagi roli	213
Yusubjonov Jonibek Farxod o'g'li	
Geodezik plan olishning avtomatlashgan usullari	219
Mamajonova Nodira Alisher qizi	
Zamonaviy arxitektura interyer dizaynida milliy grixva islomiy naqshlar uyg'unligi	225
Qo'chqarov Baxodir O'lmasovich	
Qurilishda mehnat unumdorligini oshirish va uni prognozlashning nazariy asoslari	230
Abduvaliyev Bekzod Muhiddin o'g'li	
Qishloq aholi hududlaridagi zamonaviy innovatsion o'zgarishlarining o'rta ta'lim maktablari tuzilishidagi ta'siri	235
Abdurahmonov Olimjon Obboqul o'g'li	
Seysmik hududlarda qurilish konstruksiyalarini to'g'ri tanlash	241
Egamberdiyeva Shaxnoza Abdurashidovna	
Arixiy yodgorliklarning me'moriy-rejaviy, konstruktiv va badiiy bezak yechimlari	251
Sotvoldiyev Azamatjon Akramjon o'g'li	
Xitoy va O'zbekiston tajribasi asosida soliq to'lovchilar reytingi tizimi orqali fiskal intizomni mustahkamlash	255
Abdullayev Zafarbek Safibullayevich	
Turizmga investitsiyalar iqtisodiyotimizga ijobiy ta'siri etuvchi omillari sifatida	268
Ayubov Ilyos Ilxomovich, Tursunov Qosimbek Nodirovich	



Problems of determining the informativeness of input and output parameters in object management	275
Turapov Ulugbek Urazkulovich	
Tijorat banklari faoliyatiga foiz riskining ta'siri: ilmiy-nazariy asoslar va amaliyot tahlili	280
Turdiyev Abdulhakim Qulbazarovich	
Zamonaviy moy filtrlarining dvigatel ishlash resursini oshirishiga ta'siri.....	290
Mirzakarimov Rustambek Xusanboy o'g'li	
Qayta tiklanadigan energiya manbalari: zamonaviy global tendensiyalar va O'zbekiston uchun perspektivlar	295
Bozarov Elyor Boboqulovich, Rustamova Sarvinoz Azizbek qizi	
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda investitsiyaning ahamiyati.....	300
Kaxorova Zamira Safaraliyevna	
Strengthening and enhancing the export potential of industrial enterprises for sustainable growth.....	305
Researcher of Tashkent State University of Economics	
Davlat tashkilotlarining bitiruvchilarga bo'lgan ehtiyoji va talablari.....	310
Daminova Barno Esanovna, Bozorova Irina Jumanazarovna, Pardayeva Muqaddas Zafar qizi	
Erkin iqtisodiy hududlar soliq rejimlarini takomillashtirishning xorij tajribasi.....	320
Boltayev Jo'rabek Yusofovich	
Tabiiy va sun'iy tolalar sanoatini diversifikatsiya qilish orqali investitsion jozibadorlikni oshirish.....	325
Raximov Furqat Jalalovich	
Maishiy kimyo tovarlari B2B segmentida omnichannel marketing strategiyalarining qo'llanishi	331
Ro'ziyeva Farzona Komiljon qizi	
O'zbekistonda kichik biznes faoliyatini rivojlantirish yo'nalishlari	338
Djo'rayeva Lola Abdugabbarovna	
Task mapping and job scheduling implications of fdi inflows and governance quality metrics	343
Nilufar Zikirullaeva Dilmurod qizi	
Yangi O'zbekiston savdo-iqtisodiy munosabatlari rivojlanishida xizmatlar eksportining ahamiyati	350
Eshanqulov Baxodir Abduraxmon o'g'li	
Budjet daromadlarini shakllantirishda yirik soliq to'lovchilarning tutgan o'rni	357
Tohirov Shuhrat Niyoz o'g'li	
Davlat maqsadli jamg'armalari resurslarini boshqarish va samarali foydalanish yo'nalishlari.....	361
Xushmurodov Baxtiyor Turg'un o'g'li	
Kichik biznes hamda xususiy tadbirkorlik subyektlari amaliy holati, sohani rivojlantirish asoslari	365
Ortiqov Ulug'bek Akrombek o'g'li	
Korxonalarda moliyaviy instrumentlarning hisobi va audit masalalari	371
Maxmudov Saidjamol Kadirjanovich	
Tijorat banklarida moliyaviy barqarorlikni ta'minlash bo'yicha zamonaviy tendensiyalar	375
Latipova Lola Ilhomovna	
Soliq stavkalarini tabaqalashtirish orqali soliq to'lovchilar faoliyatini muvofiqlashtirish	380
Abduraimova Nigora Abdugapparovna	
Transformatsiyalash jarayonida tijorat banklari likvidligini oshirishning nazariy asoslari	385
Poyonov Bobir Bekturod o'g'li	



The importance of implementing international accounting standards in uzbekistan	393
Annayev Abdurasul Abdurashidovich	
Ikki o'lchovli geofizik signallarni raqamli ishlashda XAAR tez o'zgartirish algoritmlari.....	403
Ibragimov Sanjarbek Salijanovich, Mullajonov Baxodirjon Arabboyevich	
Turizm infratuzilmasi va xizmat sifatini oshirish maqsadida yangi turistik yo'nalishlar va imkoniyatlar yaratish chora tadbirlari.....	410
Sindarov Sherzod Egamberdiyevich, Xakimov Zoxid Norbo'tayevich, Yusupov Muxammadali Soxib o'g'li, Ro'zimatov Sanjarbek Qosimjon o'g'li	
Korporativ boshqaruvda budjetdan tashqari mablag'lar samaradorligini oshirish	420
Saidaxmedova Aida Mirzayevna	
Enhancing labor productivity in industrial enterprises of developed countries: experiences and strategies	426
Abduxakimova Farangiz Sidikjon kizi	
Raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali "Olmaliq KMK" ajda innovatsion loyihalarni boshqarish samaradorligini oshirish yo'llari.....	434
Inamova Farida Usmanjanovna	
Methodological problems of accounting of fixed assets	439
Kholbekov Rasul Olimovich	
Необходимость платежной системы.....	446
Сайфиддинов Илхом Файзиддинович	
Зеленое ipro как новый инструмент финансирования	451
Шахзод Сайдуллаев	
Инструменты фондового рынка в международной практике повышения инвестиционной привлекательности бизнеса	459
Юлдуз Усманова	
Модели устойчивого развития туризма: международный опыт и возможности адаптации в узбекистане.....	471
Сальникова Елена Александровна	
Внедрение антикоррупционных стандартов iso в узбекистане	478
Исмаилов Баходир Исламович, Зокиров Саидакмал Баходир угли	
Global moliyaviy markazlarni baholash mexanizmi	483
Sharipova Shaxinabonu Orif qizi	
Трансформация банковского сектора узбекистана под влиянием цифровых технологий.....	488
Захарова Ирина Борисовна, Непейвода Андрей Николаевич	
Uy-joy fondini qulayligini modernizatsiya va rekonstruktsiya orqali oshirish imkoniyatlari.....	493
Inoyatova Durdona Shoxaydarovna	
Влияние технологии блокчейн на банковскую сферу	500
Амонова Хафиза	
Buxoro viloyatida suv tanqisligi sharoitida resurs tejamkor agrotexnologiyalar asosida agrobiznesni barqaror rivojlantirish masalalari	504
Ro'ziyev Sobirjon Samatovich, Saidova Firuza Kamolovna	
O'zbekiston respublikasida demografik dividend olish imkoniyatlaridan oqilona foydalanish metodlari	510
Sharipov Sherzod Shavkatovich	
Budjet mablag'laridan foydalanish ustidan jamoatchilik nazorati mexanizmlari	515
Sharoxmatov Abdurahim Abdulamitovich	



Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatiga investitsiya jalb etish-taraqqiyot garovi.....	522
Karimova Komila Daniyarovna	
Islomiy banklar tizimi va ularning faoliyatini o'zbekistonda rivojlantirish istiqbollari.....	529
Dilovarxo'jayeva Dilnozaxon Shavkatxo'ja qizi	
The use of media technologies in teaching russian language lessons	534
Khojaeva Kh.S.	
Davlat budjetini shakllantirishda soliqlarning o'rni.....	538
Yuldashev Javohirbek Ikromjon o'g'li	



DAVLAT BUDJETINI SHAKLLANTIRISHDA SOLIQLARNING O'RNI

Yuldashev Javohirbek Ikromjon o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi

"Davlat moliyasi va xalqaro moliya" mutaxassisligi magistranti

ORCID: 0009-0004-8621-9341

Annotatsiya: Mazkur maqolada soliqlarning davlat budjetini shakllantirishdagi o'rni va ular orqali iqtisodiy hamda ijtimoiy jarayonlarga ko'rsatilayotgan ta'sirlar IMRAD tamoyillari asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda soliq tizimi davlat moliyasining barqaror manbai sifatida baholanib, budjet daromadlarini ta'minlashdagi mexanizmlar ochib berilgan. Amaliy qismda O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilgan soliq islohotlari tahlil qilinib, ularning budjetga ta'siri iqtisodiy ko'rsatkichlar asosida ko'rsatilgan. Natijalar soliqqa oid siyosatni takomillashtirish va fiskal barqarorlikni mustahkamlash bo'yicha takliflar ishlab chiqishga asos bo'ladi.

Kalit so'zlar: Davlat budjeti, soliqlar, fiskal siyosat, budjet daromadlari, soliq tizimi, iqtisodiy barqarorlik, soliq islohotlari.

Abstract: This article investigates the role of taxation in the formation of the state budget and its impact on economic and social dynamics, using the IMRAD framework. The study identifies the tax system as a stable source of public finance and analyzes the mechanisms ensuring fiscal revenues. The practical section evaluates tax reforms in the Republic of Uzbekistan and assesses their fiscal impact using economic indicators. The findings provide policy insights and recommendations to improve the effectiveness of tax policy and strengthen fiscal sustainability.

Keywords: State budget, taxes, fiscal policy, budget revenues, tax system, economic stability, tax reforms.

Аннотация: В статье исследуется значение налогов в формировании государственного бюджета и их воздействие на социально-экономические процессы в рамках структуры IMRAD. Налоговая система рассматривается как устойчивый источник государственных финансов, раскрываются механизмы обеспечения доходов бюджета. В практической части проанализированы налоговые реформы в Республике Узбекистан и их влияние на бюджет с использованием экономических показателей. Результаты исследования служат основой для совершенствования налоговой политики и укрепления фискальной устойчивости.

Ключевые слова: Государственный бюджет, налоги, фискальная политика, доходы бюджета, налоговая система, экономическая стабильность, налоговые реформы.



KIRISH

Bozor munosabatlarining chuqurlashuvi va iqtisodiyotning liberallashtirish sharoitida davlatning iqtisodiyotni tartibga solishdagi roli sezilarli darajada ortmoqda. Xususan, davlat budjeti iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashning muhim vositasiga aylanmoqda. Davlat budjeti mamlakat moliyaviy siyosatining asosiy instrumenti bo'lib, uning eng muhim daromad manbasi – soliqlardir. Soliqlar davlat ehtiyojlarini moliyalashtirishdan tashqari, iqtisodiy jarayonlarni tartibga solish, daromadlarni qayta taqsimlash, bandlikni rag'batlantirish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash kabi ko'plab funksiyalarni bajaradi [1].

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so'ng, bozor tamoyillariga mos soliq tizimini shakllantirish yo'lida tub islohotlarni amalga oshira boshladi. So'nggi yillarda olib borilgan islohotlar, jumladan, soliq stavkalarining pasaytirilishi, soliq yuki yengillashtirilishi, raqamli texnologiyalar asosida soliq ma'murchiligining soddalashtirilishi orqali iqtisodiy erkinlik kengaytirilmoqda. Bu jarayon davlat budjeti daromadlarini shakllantirishda soliqlarning o'rnini yangicha baholash, ularning samaradorligini oshirish hamda fiskal barqarorlikni ta'minlashni dolzarb masalaga aylantirmoqda [2].

Ushbu maqolada O'zbekistonda soliqlarning davlat budjeti shakllanishidagi o'rne, ularning iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyati hamda soliq islohotlarining amaliy natijalari tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari soliq siyosatini takomillashtirish, budjet barqarorligini mustahkamlash va iqtisodiy boshqaruv samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy-amaliy xulosalar chiqarishga xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Soliq tizimi davlat moliyasi va iqtisodiy siyosatning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Ushbu tizim davlatning iqtisodiy hamda ijtimoiy barqarorligini ta'minlashda markaziy rol o'ynaydi. Ilmiy adabiyotlarda soliqlarning davlat budjeti daromadlar tarkibidagi o'rne, shuningdek, moliyaviy siyosat samaradorligini oshirishdagi ahamiyati keng tahlil etilgan.

B. Musayev va M. Xolbo'tayev o'z izlanishlarida soliq tizimini iqtisodiy barqarorlikni ta'minlovchi muhim vosita sifatida ko'rsatganlar. Ular soliqlar orqali budjet daromadlarining barqaror manbasi shakllantirilishini, bu esa davlat moliyaviy barqarorligini ta'minlashda asosiy omil bo'lib xizmat qilishini ta'kidlaydilar [3].

A. Shadmanov va D. Djalilov o'z asarlarida soliqlarning nafaqat davlat moliyaviy ehtiyojlarini qoplashdagi, balki iqtisodiy siyosatni amalga oshirishdagi o'rnini ham yoritgan. Ularning ta'kidlashicha, soliqlar iqtisodiy faollikni rag'batlantirish, kam ta'minlangan qatlamlarga ijtimoiy yordam ko'rsatish, daromadlarni qayta taqsimlash va resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi [4].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqolada ilmiy tadqiqotning aniqlik va xolislik darajasini oshirish maqsadida induktiv hamda deduktiv yondashuvlardan foydalanildi. Shuningdek, mavzuga oid mavjud holatlarni chuqur tahlil qilish uchun taqqoslash usuli, normativ-huquqiy hujjatlar asosidagi tahliliy yondashuv ham qo'llanildi. Metodologik yondashuvlar yordamida soliq siyosatining iqtisodiy va huquqiy jihatlari o'rtasidagi bog'liqlik, islohotlarning amaliy natijalari va ularning budjetga ta'siri tizimli asosda o'rganildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Soliqlar eng muhim iqtisodiy kategoriyalardan biri bo'lib, ular tarixan davlatning paydo bo'lishi, mavjudligi va faoliyati bilan uzviy bog'liqdir. Pul resurslarini safarbar qilishning usuli, mohiyati va ko'lam, shuningdek ularni sarflash mezonlari, tegishli davlatni shakllantirgan jamiyatning iqtisodiy rivojlanish bosqichiga bog'liq bo'ladi [5].

Soliq – moliyaning asosiy tushunchalaridan biri bo'lib, uni bir vaqtning o'zida iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy hodisa sifatida baholash lozim. Soliqlar jamiyat taraqqiyotining yetarli darajasida yuzaga keladi. Shu bois, soliqning ko'plab ta'riflari mavjud [6].

Davlat iqtisodiyotga ta'sir ko'rsatishda iqtisodiy, moliyaviy, pul-kredit va ma'muriy usullardan foydalanadi. Ushbu vositalar ichida soliq tizimi davlat ixtiyoridagi eng muhim iqtisodiy mexanizmlardan biri hisoblanadi. Soliq tizimi quyidagi qarama-qarshi va murakkab vazifalarni hal etishga xizmat qilishi lozim: barcha darajadagi budjetlar uchun yetarli darajadagi tushumlarni ta'minlash; ishlab chiqarish hajmining o'sishini rag'batlantirish; ustuvor yo'nalishlarni aniqlab, ishlab chiqarish sohalarini qayta shakllantirishga faol ta'sir ko'rsatish; ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarni (nogironlar, pensionerlar, ko'p bolali oilalar) qo'llab-quvvatlash.

Zamonaviy sharoitda soliqlar yangi iqtisodiy munosabatlarni tartibga solishning eng samarali vositalaridan biriga aylanmoqda. Oqilona soliq tizimi milliy, mintaqaviy, mahalliy va xususiy manfaatlar o'rtasida muvozanatni ta'minlashi, ishlab chiqarish, tadbirkorlik hamda investitsion faollikni rivojlantirishga ko'maklashishi kerak. Soliqlar va yig'img'lar jismoniy va yuridik shaxslardan undiriladigan, takror ishlab chiqarish uchun zarur moliyaviy manbalarni ta'minlovchi majburiy to'lovlar sifatida inqirozli holatlarda iqtisodiyotni barqarorlashtirish hamda ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi [6].

Bugungi kunda soliqlarning davlat budjetini shakllantirishdagi roli takror ishlab chiqarish jarayonining ajralmas tarkibiy qismiga aylangan (1-jadval).

1-jadval. O'zbekiston soliq tizimi tahlili va istiqbolli rivojlanish yo'nalishlari.

Soliq turlari / Asosiy funksiyasi	Budjetga ta'siri	Iqtisodiy samaradorligi
Davlat soliqlari (QQS, foyda solig'i va b.)	Budjet daromadlarining asosiy qismini ta'minlaydi	Barqaror daromad manbai, inflyatsiyani boshqarish imkoniyati mavjud
Hududiy soliqlar (yer, mol-mulk solig'i)	Mintaqaviy infratuzilmani moliyalashtiradi	Hududlar o'rtasidagi tenglikni oshiradi
Bojxona to'lovlari va yig'img'lar	Import-eksport siyosatini tartibga soladi	Sog'lom raqobat muhitini shakllantiradi
Mahalliy yig'img'lar (tibbiy sug'urta, litsenziyalar)	Mahalliy xizmatlar va infratuzilmani rivojlantiradi	Mahalliy tashabbuslarni rag'batlantiradi
Ijtimoiy himoya uchun ajratmalar	Aholining ijtimoiy himoyasini kuchaytiradi	Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlaydi

Soliqlar iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish, bandlikni tartibga solish, tarmoq va hududiy rivojlanishda ijobiy siljishlarni qo'llab-quvvatlash, eksport salohiyatini kengaytirish kabi vazifalarni bajaradi. Davlat tomonidan iqtisodiyotni tartibga solish shakllari va ko'lamlari mamlakatdagi muayyan davrga xos iqtisodiy-ijtimoiy muammolarning xususiyatlari bilan belgilanadi [5].

Davlat iqtisodiy muvozanatni saqlashda aralashuv darajasini doimiy ravishda qayta ko'rib chiqib borishi zarur. Bozor tizimi iste'molchilar va ishlab chiqaruvchilarning qaror qabul qilishda erkinlik va moslashuvchanlik darajasi bilan tavsiflanadi. Shu bois, davlat siyosati bozor tizimining rivojlanish sur'atidan orqada qolmasligi kerak, aks holda u tartibga soluvchi emas, balki iqtisodiy jarayonlarni sekinlashtiruvchi byurokratik tizimga aylanadi [5].

Shunday qilib, soliq tushumlari davlat budjeti daromadlarining asosiy manbai va ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni tartibga soluvchi muhim vosita hisoblanadi. Davlat o'z zimmasiga olgan funksiyalarni – mudofaa, ichki tartib va ijtimoiy xavfsizlikni ta'minlash kabi majburiyatlarni bajarishda soliq tushumlari hajmiga bevosita bog'liqdir [6].

Soliqlar milliy daromadni qayta taqsimlashning asosiy vositasidir. Davlat va mahalliy budjetlarning daromadlarida soliqlarning ulushi yuqori bo'lsa-da, ayrim hollarda bu ulush nisbatan kam bo'lishi mumkin. Budjetlar qat'iy (o'z) va tartibga soluvchi daromadlar hisobidan shakllanadi.

Soliqlar manbai sifatida milliy daromad xizmat qiladi. Uning birlamchi taqsimoti soliqlar orqali amalga oshiriladigan ikkilamchi yoki qayta taqsimot bilan to'ldiriladi. Yangi qiymatni qayta taqsimlashda



solliqlar takror ishlab chiqarishning tarkibiy elementi, ishlab chiqarish munosabatlarining o'ziga xos shakli sifatida namoyon bo'ladi.

Solliqlar davlat faoliyatining nafaqat huquqiy, balki moddiy asosi bo'lib, ular milliy daromadning davlat tomonidan begonalashtirilgan qismini aks ettiradi [7].

O'zbekiston Respublikasining soliq va yig'imlar to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq, soliq tushumlari barcha darajadagi budjetlar va budjetdan tashqari jamg'armalarga qonuniy tartibda yo'naltiriladi [6]. Bozor sharoitlarida solliqlar O'zbekiston Respublikasi davlat budjetining asosiy daromad manbaiga aylangan.

Soliq to'lovlari hisobiga davlatning moliyaviy resurslari shakllanadi, ular budjet va budjetdan tashqari fondlar orqali boshqariladi. Solliqlarning iqtisodiy mohiyati xo'jalik yurituvchi subyektlar hamda davlat o'rtasidagi moliyaviy munosabatlar orqali namoyon bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Budjet kodeksiga ko'ra, davlat budjeti daromadlari – davlat hokimiyati organlari tasarrufidagi, qonuniy asosda tekin va qaytarilmas asosda olinadigan mablag'lardir.

Budjetning soliq tushumlari quyidagilarni o'z ichiga oladi: davlat solliqlari va yig'imlari. Ularning stavkalari va ro'yxati O'zbekiston Respublikasi soliq qonunchiligi bilan belgilanadi. Budjet tizimi darajalari o'rtasidagi taqsimot nisbati esa O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi bilan tartibga solinadi va kamida uch yillik muddatga belgilanadi. Davlat qonunchiligiga o'zgartirishlar kiritilgan taqdirdagina bu muddat qisqartirilishi mumkin. Bundan tashqari, bojxona to'lovlari, yig'imlar, davlat boji ham soliq tushumlariga kiradi [6].

Davlat mintaqaviy budjetlar orqali iqtisodiy siyosatni faol olib bormoqda. Viloyat hokimliklarini budjet mablag'lari bilan ta'minlash orqali sanoat, qishloq xo'jaligi, avtomobil yo'llari, ekologik muhofaza kabi sohalar moliyalashtiriladi. Moliyalashtiriladigan yo'nalishlar doirasi ham kengayib bormoqda.

Hududiy budjetlar yordamida davlat tarixiy, geografik, harbiy va boshqa omillar sabab iqtisodiy rivojlanishda ortda qolayotgan mintaqalarning ijtimoiy-iqtisodiy holatini muvozanatlashtirishga harakat qilmoqda [8].

O'zbekiston Respublikasi Budjet kodeksiga muvofiq, viloyat budjetlari o'z daromadlari va normativ ajratmalar asosida shakllantiriladi. Mintaqaviy solliqlar tarkibiga quyidagilar kiradi: yuridik shaxslar mol-mulkiga solinadigan soliq, qimor o'yinlariga soliq, transport vositalari solig'i.

Mahalliy budjetlar milliy iqtisodiy va ijtimoiy maqsadlarni amalga oshirishda, ayniqsa ijtimoiy infratuzilmani saqlab qolish va rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Mahalliy budjetlar tizimiga 29 mingdan ortiq shahar, tuman, viloyat va qishloq budjetlari kiradi. Davlat tomonidan olib borilayotgan ijtimoiy siyosat katta hajmdagi moliyaviy resurslarni talab qiladi.

Mahalliy budjetlarning o'z daromad manbalariga yer solig'i, shaxsiy mulk solig'i, majburiy tibbiy sug'urta badallari, budjetdan tashqari va tarmoq fondlari mablag'lari kiradi. Mahalliy hokimiyat organlari o'z daromad manbalariga ega bo'lish orqali iqtisodiy tashabbusni kuchaytirish va budjetga tushumlarni ko'paytirishga erishmoqda [9].

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tadqiqot va tahlillar asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

Solliqlar davlat budjetining asosiy manbai hisoblanadi. Ular orqali davlat o'z moliyaviy ehtiyojlarini qoplaydi, ijtimoiy dasturlarni amalga oshiradi va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlaydi. O'zbekiston Respublikasida budjet daromadlarining 75 foizdan ortig'ini aynan solliqlar tashkil etadi.

Soliq siyosati iqtisodiyotni tartibga soluvchi muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Uning yordamida daromadlarni qayta taqsimlash, investitsiyalarni rag'batlantirish, bandlikni oshirish kabi ustuvor vazifalar amalga oshiriladi.

O'zbekistonda amalga oshirilgan soliq islohotlari, jumladan, solliqlarni soddalashtirish, soliq stavkalarini kamaytirish va ma'muriy tartib-taomillarni yengillashtirish, davlat budjeti barqarorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Natijada soliq bazasi kengayib, tushumlar miqdori ortmoqda.

Shu bilan birga, ayrim dolzarb muammolar ham mavjud: soliq yukining notekis taqsimlanishi, soya iqtisodiyotining yuqori darajadali, soliq to'lov intizomining sustligi kabi masalalar yechimini kutmoqda.

Takliflar:

Soliq yukini adolatli taqsimlash. Yuqori daromadli jismoniy va yuridik shaxslarga nisbatan progressiv soliq tizimini joriy etish imkoniyatini ko'rib chiqish lozim.

Soliq ma'murchiligini yanada soddalashtirish. Kichik biznes subyektlari uchun yengillashtirilgan elektron hisobot tizimlarini joriy etish hamda avtomatlashtirilgan nazorat mexanizmlarini takomillashtirish zarur.

Soya iqtisodiyotini qisqartirish. Naqd pulsiz hisob-kitob tizimini keng joriy etish, davlat xarajatlarini shaffolashtirish va jamoatchilik nazoratini kuchaytirish orqali norasmiy iqtisodiyot miqyosini kamaytirish mumkin.

Hududiy budjetlarning moliyaviy mustaqilligini kuchaytirish. Mahalliy soliq tushumlarining muhim qismini hududlar tasarrufida qoldirish orqali ularning iqtisodiy tashabbuslarini rag'batlantirish zarur.


Soliq siyosatini ijtimoiy yo'naltirish. Kam ta'minlangan qatlamlarga soliq imtiyozlarini saqlab qolish, soliqlar orqali ijtimoiy himoya dasturlarini moliyalashtirishga alohida e'tibor qaratish lozim.

Soliq to'lov intizomini oshirish. Soliq to'lovchilar ongini yuksaltirish, ijtimoiy mas'uliyatni shakllantirish va soliq madaniyatini targ'ib etishga qaratilgan motivatsion yondashuvni kuchaytirish tavsiya etiladi.

Ushbu takliflar davlat budjetining barqarorligi, soliq siyosati samaradorligi hamda iqtisodiy rivojlanish sur'atlarini qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi. Shu bois, soliq siyosatini uzluksiz takomillashtirish strategik ustuvor yo'nalish bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Musayev B., Xolbo'tayev M., Mahmudov M. Soliqlar va soliqqa tortish: o'quv qo'llanma. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2022. – 320 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 29-iyundagi "Soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi to'g'risida"gi PF-5468-sonli Farmoni.
3. Musayev B., Xolbo'tayev M. (2022). Soliqlar va soliqqa tortish: O'quv qo'llanma.
4. Shadmanov A., Djalilov D. (2020). Soliq siyosati va iqtisodiy o'sish.
5. Hakimov A., Ro'ziev Sh., To'raev B. – T.: Moliya, 2022. – 344 b.
6. Yunusov A., Egamnazarov N. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2021.
7. Moliya nazariyasi. O'quv qo'llanma / Tahrir hay'ati: B. Hakimov va boshq. – T.: Moliya, 2022.
8. Mintaqaviy iqtisodiy siyosat va budjet tizimi / Karimov A., Tashkentov S. – T.: Moliya, 2022.
9. Ijtimoiy siyosat va mahalliy budjetlar / Haydarov B., Egamov S. – T.: Moliya, 2022.



Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100